

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXEOLOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддигов Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Rahmonqulova Z. B.

«Manbashunoslik va arxivshunoslik» kafedrası professori., t.f.n.

O'zbekiston Milliy universiteti

zumradrahmankulova@gmail.com

O'RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O'RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN

ANNOTATSIYA

Maqolada O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan iqtisodiy aloqalari masalalari yoritilgan bo'lib, mavzu doirasida qator manba, tadqiqotlar jalb etilgan. Shuningdek, savdo aloqalarida katta ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar, mahsulotlar tug'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy aloqalar, karvon yo'llari, tekstil mahsulotlari, ipak matolari, hunarmandchilik mahsulotlari.

KIRISH

O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan iqtisodiy aloqalari ko'p asrlik tarixga ega. Manbalarning ma'lumotiga ko'ra, bu munosabatlar har doim ham rasmiy bo'lmagan bo'lsada, muntazam savdo aloqalari olib borilgan. Elchilarga davlatlar o'rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish vazifalari ham yuklatilgan. Buxoro, Xiva, Samarqand, Istanbul, Samsun, Trabzon kabi shaharlar savdo aloqalarida katta ahamiyat kasb etgan.

Usmoniylar iqtisodiyotida avvalo ehtiyojlar ichki resurslar orqali ta'minlangan mahsulotlar yetishmagandagina tashqi xaridlar amalga oshirilgan va faqatgina ortiqchasinigina sotgan[1]. Usmoniylarning muhim geosiyosiy va geostrategik hududda joylashgani ularni tashqi savdo imkoniyatlari yuqori bo'lmasa ham tranzit savdo markaziga aylantirdi. Natijada iqtisodiyotda eksportga birlamchi o'rin bermagan Usmoniylar tranzit savdo talablarini bajarib, savdo uchun qulay muhitni ta'minlash maqsadida barcha sharoitlarni yaratdi. Usmoniylar iqtisodiyotining tranzit savdoga bo'lgan bu e'tibori mahalliy ishlab chiqarish va iste'moldan ko'ra tashqi savdoni birinchi o'ringa olib chiqdi. Usmoniylar Yevropa va Osiyo o'rtasida ko'prik vazifasini o'tab, ayniqsa, sharq-g'arb savdo yo'llarini nazorat qilib, bu yo'llardan olgan daromadlari bilan iqtisodiy qudratini mustahkamlagan. Bundan tashqari, davlatning iqtisodiy siyosati ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga qaratilgan edi. Qishloq xo'jaligiga asoslangan iqtisodiyot bilan bir qatorda, davlat tomonidan ishlab chiqarishni ko'paytirish va ehtiyojlarni qondirish uchun turli xil imtiyozlar berilgan. Biroq, bu imtiyozlar ko'pincha tranzit savdosini qo'llab-quvvatlash va davlat daromadlarini oshirish uchun shakllantirilgan. Hukumat

tomonidan savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minlaydigan, ularni qo'riqlaydigan Derbent tashkiloti tuzilib, ular karvonsaroylar faoliyatini yo'lga qo'ygan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

XV asrdan Usmoniylar davlati Yevropa davlatlariga tekstil mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib bergan. XVIII asrda turk gilamlari Yevropa eksport qilingan yuqori sifatli mahsulot hisoblangan. Anqaraning sof matosi, Bursa ipak matolar, Oqsaroy, Go'rdes, Ushak shaharlari gilam, Borlu, Isparta, Kahraman, Chorum, Tokat, Kastamonuning yupqa paxta matolari dunyoning turli davlatlariga eksport qilingan. Bu jarayon XIX asrgacha Yevropadagi sanoat inqilobigacha davom etgan, zamonaviy uskunalar o'rnatilgan fabrikalar turk mahsulotlarini bozorlaridan siqib chiqargan. Yevropa davlatlari jun matolarini o'rta asrlardan boshlab Usmoniylar va Eron hududlari orqali Osiyo davlatlariga eksport qilgan va Osiyodan ipak, barqut, baxmal, satin va boshqa paxtali matolarni sotib olgan. Bu davrda Usmoniylar paxtali, ipak va jun matolarni eksport qilishda Hindistondan keyingi asosiy davlat sifatida Yevropa davlatlariga eksport qilgan. Ma'lumki, Yevropada paxta matolarni to'qiydigan dastgohlar faqatgina XVII asrdan boshlab o'rnatila boshlagan. XVII asrda Italiya Anatoliyadan angora ipini sotib olib mashhur sof matosini ishlab chiqib tekstil sanoatida ilgarilab ketgan bo'lsada, bo'yoqlarni ishlab chiqishda turklardan ilgarilab keta olmadi. A.Vamberining[2] ma'lumotiga ko'ra Xiva ipagi fransuz va italyan ipaklaridan sifati yuqoriligi bilan ajralib turgan. Chunki bu davrda Yevropada ipak qurti kasalligi tarqalgan bo'lib, bu O'rta Osiyoda uchramagan edi. Ma'lumki, XV asrda Florensiyalik savdogarlar juda katta miqdordagi Eron ipagini Bursadan olib ketib qayta ishlagan. XVII asrdan boshlab Usmoniylar Venetsiya bilan ikki yo'nalishda: quruqlik va dengiz yo'llari orqari savdo aloqalarini olib borgan. Venetsiyaliklar asosan tayyor mahsulotlarni olib kelib, sharqdan keltirilgan ziravorlar va boshqa xomashyolarni olib ketgan.

V. A. Papapzyan[3] tadqiqotlarida Erondagi ipak mahsulotlarini Yevropaga eksport qiladigan to'qimachilik ustaxonalari asosan mamlakatning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, sharqiy hududda yashaydigan aholi Xiva va Buxoro ipak matolaridan foydalanganligini keltirib o'tadi. Usmoniylar iqtisodiyotida Erondan olib kelingan ipak va ipak mato savdosi muhim o'rin tutgan. Eron savdogarlari Usmoniylarning kichik shaharlarigacha kirib borib savdo ishlari bilan shug'ullangan. Usmoniylar va Safaviylar o'rtasidagi urushlar bu savdoga vaqti-vaqti bilan salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, u XVIII asrgacha shu tarzda davom etgan. Erondagi o'zaro ichki nizolar, karvon yo'llaridagi to'siqlar va ichki bojxonalarning ko'pligi, ularning har biriga boj to'lash kerakligi ichki savdoga

salbiy ta'sir qilgan. 1718 yildan Usmoniylar hududi orqali o'tgan tranzit savdogarlardan 5 foiz boj va raftiya[4] soliqlari undirilgan.

XVII-XVIII asr boshlarida Usmoniylar davlati bozorlariga movut yetkazib berishda hukmronlikni qo'lga olish maqsadidagi Angliya, Gollandiya va Fransiya o'rtasida raqobat shuni ko'rsatdiki, g'arb davlatlari manufakturalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun Levant bozorlariga venetsiyaliklar ipak va kimxob matolar, oyna va qog'oz, gollandlar – movut va metall buyumlar, inglizlar kiyim-bosh, mis, soatlar, teri va qo'rg'oshin chiqarib turganlar. Usmoniylar davlatida tranzit savdoning ahamiyati boshqa mamlakatlarga nisbatan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Hukumat doirasida karvonsaroylar, savdogarlar va savdo faoliyatiga doir qonunlar qabul qilingan. Shunday qonunlarning biriga ko'ra, agar mahalliy yoki xorijiy savdogarlar joylashgan karvonsaroyda o'g'rilik sodir bo'lsa, shu paytda kim karvonsaroyda bo'lsa uning barcha narsalari ko'zdan kechirilgan. Odatda bunday hollar tong saharcha yuz berib, tekshiruv yakunlanmaguncha, hech kim tashqariga chiqarilmagan. Tekshiruv yakuniga yetganidan so'ng bildirilgan shikoyatlar qabul qilinmagan. Bu davrda Mashhad Trapezund va Fors qo'ltig'i orqali Osiyoga keladigan tranzit mollari yig'iladigan joy vazifasini bajargan. Yevropaga sharq mollari chiqariladigan asosiy savdo yo'llari chorrahasida joylashgan Eron bilan inglizlar XIX asrning boshida ikki yo'l: Trapezund, Tabriz va Kavkazorti orqali savdo qilgan. Bu ikki yo'ldan keng foydalangan inglizlar Eron bozorida mustahkam o'rnatilib olib, rus mollarini siqib chiqara boshlaganlar. 1830-1844 yillar oralig'ida Eron bozorlaridagi hukmronlik ruslardan inglizlar qo'lga o'tgan.

O'rta Osiyo xonliklari shaharlari esa qadimdan Sibir[5], Sharqiy Yevropa[6], Osiyo[7] davlatlari bilan tashqi savdoni olib borgan yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan. Karvon yo'llar orqali qadimgi davrlardan Hindiston va Xitoydan zira, dolchin, nil bo'yog'i, fil suyagi, marvarid, olmos, ipak gazlamalar, bronza va chinnilar O'rta Osiyo orqali Vizantiya va Rimga olib borilgan. Buxoroda Yevropada ishlab chiqarilgan sanoat mollari, xitoy choyi, hind shakari hamda eron, turk, hind savdogarlarini uchratish mumkin bo'lgan[8]. Manbalarda keltirilishicha, Xiva ipagi Eronnikidan yaxshirok bo'lgan bo'lib asosan xom ashyo shaklida sotilgan. Buxoro va Xivaning ipak va ip gazlamalari, ulardan tikilgan kiyim-kechaklar, atlas, duxoba, qorako'l terisi, turkman otlari Eron orqali Usmoniylar davlatiga va Xitoyga o'tkazilgan. O'rta Osiyo davlatlarining Usmoniylar va Eron bilan aloqalari Marv va Mashhad yoki Kaspiy dengizi bo'ylab o'tadigan Xiva-Mashhad yo'li bilan olib borilgan. Mashhad Fors ko'rfazi orqali hamda Trapezund orqali keladigan karvonlar markazi bo'lgan. Mashhadga shimoliy Erondan ikkita yo'l Astrabod-Shahrud-Nishopur-Mashhad (janubiy yo'l)

va Astrabod-Bujnurd-Ko'chon-Gunobod-Mashhad (shimoliy yo'l) olib borgan[9]. Buxorodan Balxga 10 kunda, Balxdan Qobulgacha ham 10 kunlik yo'l bo'lgan.

O'rta Osiyo xonliklari bilan Eron o'rtasida sodir bo'lib turadigan to'xtovsiz urushlar, hamda xonliklar o'rtasidagi o'zaro nizolar natijasida Mashhad-Marv yo'lining ahamiyati pasayib bordi. A.Vamberi ma'lumotiga ko'ra, Mashhaddan Buxoroga boradigan karvonlar o'n kunlik yo'l bo'lishiga qaramay, boshqa uzoqroq (Hirot-Maymana-Anxoy orqali) uch barobar uzoq bo'lgan yo'ldan borishga majbur bo'lardilar. Shuningdek, bu yo'lda tez-tez qaroqchilarga ham duch kelish mumkin edi[10].

O'rta Osiyo bilan qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalar masalalari, qadimgi va o'rta asrlarda bu yerdan o'tgan savdo yo'llarining o'rganish, hunarmandchilik tarixi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Jumladan, K. A. Adilov, K. M. Baypakov, N. N. Akramov, X. F. Pirumshoyev, E. V. Rtveladze, A. S. Sagdullayev, E. I. Lubo-Lesnichenko, R. G. Mukminova, G. A. Agzamova, T. V. Raufovlar[11] shular jumlasidandir. O'rta Osiyo xonliklari Rossiya, Hindiston, Xitoy, Eron va Usmoniylar davlatlari bilan bevosita va bilvosita iqtisodiy aloqalarni olib borganlar. Sovet davri tarixshunosligidagi ilmiy qiziqishlari natijasida O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan olib borgan savdo aloqalari masalasi O'zbekiston tarixining bevosita o'rganilmagan bo'limlari qatoriga kirib qolishiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyo xonliklarining sharq davlatlari, jumladan bilvosita Usmoniylar bilan munosabatlari tarixi bo'yicha D.Valiyeva, B.Mannonovlarning[12], tadqiqotlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

D. Valiyeva karvon yo'llari haqida batafsil ma'lumot beradi va "karvon yo'llaridagi talonchiliklar odatiy holga aylanib, O'rta Osiyo xonliklarining savdo aloqalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, bu aloqalarni butunlay to'xtatib qo'ymagan" [13] ligini ta'kidlab o'tadi. D.Valiyevaning ma'lumot berishicha, O'rta Osiyolik hojilar va savdogarlardan iborat karvonlar ham Makkaga borishda, ko'pincha, Orenburg-Astraxan-Kavkaz-Trabzon hududlari yoki Qrim-Istanbul orqali uzoq, biroq xavfsiz yo'lni afzal ko'rardilar[14]. Shuningdek, Xorazmdan Kaspiy dengizi orqali Bokuga undan Anatoliya hududlaridan o'tgan yo'l bo'lgan bo'lsada, undan faqatgina Eron-Xiva munosabatlari keskin bo'lmagan vaqtdagina foydalanilgan. Buxorolik savdogarlar Mashhad-Tehron-Tabriz orqali qisqa va xavfli bo'lgan Mashhad yo'lidan ham foydalangan.

B. Mannonov Eron bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi munosabatlar masofalar yaqinligiga qaramasdan Rossiya bilan bo'lganidek keng ko'lamda amalga oshirilmaganligining sababi Eron va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi g'oyat keskin munosabat va chalkash siyosiy vaziyat ekanligini batafsil ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, bu munosabatlarining O'rta Osiyo

xonliklarning Usmoniylar bilan aloqalariga ta'sirini ko'rsatib o'tadi. Mualliflarning ma'lumotlarini bu davrga oid manbalar bilan taqqoslab o'rganish natijasida masalaga xolis yondashishga yordam beradi. Erondagi ipak mahsulotlarini Yevropaga eksport qiladigan to'qimachilik ustaxonalari asosan mamlakatning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, sharqiy hududda yashaydigan aholi Xiva va Buxoro ipak matolaridan foydalangan. Erondagi o'zaro ichki nizolar, karvon yo'llaridagi to'siqlar va ichki bojxonalarning ko'pligi, ularning har biriga boj to'lash kerakligi ichki savdoga salbiy ta'sir qilgan. Fikrimizcha, ichki va tashqi mahsulotlarning narxlari orasida katta farq bo'lmaganligi sababli, tashqaridan keladigan mahsulotlardan foydalanishni afzal ko'rganlar.

XVI asrga kelib Yevropa–Osiyo savdo aloqalarida Kaspiy dengizi ahamiyatining ortishi bilan uning g'arbiy qirg'og'ida Kavkazorti mamlakatining Rossiya, G'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo, Xitoy va Hindiston bilan savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan yirik savdo punktlari tashkil topgan. Kaspiy dengizining asosiy porti sanalgan Boku shahri o'rta osiyolik tujjorlarning Yevropa savdogarlari bilan tijorat ishlarini olib boradigan markazi edi. XVI asrda yashagan sayyoh Avliyo Chalabiy ma'lumotiga ko'ra, Boku Shirvon viloyatining savdo bandargohi hisoblangan. Bu yo'llar O'rta Osiyo va Usmoniylarning munosabatlarida muhim rol o'ynadi.

G. A. Mixaleva[15], M. K. Rojkova[16] tadqiqotlarida O'rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy aloqalariga ta'siri bo'lgan Rossiyaning Eron, Usmoniylar bilan savdo aloqalari o'z aksini topgan. Mualliflar Rossiyaning O'rta Osiyo masalasidagi iqtisodiy qiziqishlariga batafsil to'xtalib o'tgan.

G. A. Mixaleva O'rta Osiyo xonliklarida ichki savdo, pul birligi, soliqlar, ularning turlari, Rossiya, Eron, Afg'oniston bilan savdo aloqalari, import, eksport masalalari, metrologik birliklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

M. K. Rojkova Osiyo chegarasi bo'ylab Rossiya savdosining o'sishida XVIII asrning 20-yillarda Turkiya va Eron bilan urushlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu Osiyo chegarasining ushbu qismida rus tovarlari uchun yo'l ochganligini, ta'kidlagan. Shuning uchun bu davr Rossiyaning Eron bilan savdosining gullab-yashnashi bilan tavsiflanadi. Osiyoga eksport qilinadigan barcha tovarlarning miqdori 40 foizdan, 50 foizga ko'tarildi, sanoat mahsulotlarining hajmi 60 foizga ko'tarilgan.

XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo xonliklariga Angliya, Rossiyaning turli savdo vakillari elchi vazifasida faoliyat olib bora boshladi. Jumladan, ingliz savdo kompaniyasining a'zosi A.Jenkinsonning O'rta Osiyoga yuborilishi bunga misol bo'la oladi. Y.A.Sokolov[17], S.Jukovskiy[18], P.Ivanov[19], M.Yuldashev[20]lar A.Jenkinsonning O'rta Osiyodagi faoliyatini turli tarixiy ma'lumotlarni keltirgan holda yoritgan.

Y. A. Sokolov, A. Jenkinsonning O'rta Osiyodagi faoliyati haqida "Angliyaning Rossiya orqali Hindistonga kirib borish yo'lini qidirib topishiga kompaniyaning eng faol vakillaridan biri Antoniy Jenkinson asos solgan" [21] ligini, ammo P.Ivanov bu fikrni inkor etib, O'rta Osiyo-Rossiya savdo aloqalariga A.Jenkinson asos solmaganligini, M. Yuldashev esa A. Jenkinsonning bergan hamma ma'lumotlarini to'g'ri deb qabul qilish kerakmasligi ta'kidlab o'tadi.

XVI asrda Buxoro xonligi Hindiston, Eron bilan savdo aloqalarini davom ettirayotganligini ko'rish mumkin. Hindistondan indigo bo'yog'i olib kelingan bo'lsa, Erondan ip gazlamalar, surp, guldor ipak, Buxorodan esa oshlanmagan teri, rus tovarlari olib ketilgan. Eronga matolar Usmoniylar davlatidan keltirilgan. A.Jenkinsonning ma'lumot berishicha, XVI asrdanoq Buxoroda har yili Hindiston, Eron va Rossiya savdogarlarining yig'ini o'tkazilib turilgan[22]. Shuningdek Jenkinson Hindistondan O'rta Osiyoga keltirilgan mahsulotlar va ularning turlari ham keltirib o'tilgan. Tarixiy manbalarda Buxorodan Hindiston, Eronga asosan paxta gazlamalari, quritilgan mevalar sotilgani haqidagi ma'lumotlar berilgan[23]. Shu o'rinda shuni alohida ta'qidlash lozimki, O'rta Osiyoda ishlab chiqilgan ipak mahsulotlari tashqi bozorga paxta matolarchalik mashhur bo'lmagan.

O'rta Osiyo xalqlarining an'anaviy kiyimlari, hunarmandchilik masalalari N. Nemseva[24], R. Mukminova, G. Pugachenkova, O. Suxarevalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. R. Mukminova[25] O'rta Osiyoda hunarmandchilik, jumladan to'qimachilik, bo'yoqchilik, kog'oz, metall ishlab chiqarish, kiyim-kechaklarni tayyorlash, hunarmandlarning ijtimoiy ahvoli, tashqi savdo masalalarini manbalar asosida batafsil tadqiq etgan. Muallif ma'lumotlarining to'g'riligini isbotlash maqsadida manbalardagi parchalardan o'rinni foydalanganligi bilan alohida ajralib turadi. O'rta Osiyo xonlari tomonidan Usmoniylar, Eron hukmdorlariga yuborilgan sovg'alar orasida ipak bilan Buxoro, Eron va turk uslubida bezatilgan mis, temir qalqonlarni ham ko'rish mumkin[26]. Qurol-yaroqlar Samarqand, Buxoro va Toshkentda ishlab chiqarilgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerak-ki, Abdullaxon davrida saroyda Anodo'lidan kelgan "ustai Rumi"lar, yirik to'plar yasagan. XVI asrlarda kichik to'plar Hind okeani orqali portugallar, gollandlardan sotib olganlar. Ba'zi vaziyatda vositachilar orqali qurol sotib olishga majbur bo'lganlar, bu esa ularga qimmatga tushgan[27].

G. Pugachenkova[28] tadqiqotida O'rta Osiyoda arbas yoki katon matosidan tikilgan ustki kiyim bo'lgan – jamo, kabo, chakmon, chopon, kaftan, nimchadan foydalanishgani haqidagi ma'lumotlar ham berilgan. O.Suxareva[29]ning ta'kidlashicha, juda qimmatbaho choponlar ham bo'lib ulardan pulning ekvivalenti sifatida foydalanilgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur ham O'rta Osiyoda hukmdorlar tomonidan kiyiladigan kiyimlar[30], Samarqandda tayyorlangan baxmal matosini dunyoning turli mamlakatlariga olib ketilgani va u

xalq orasida juda mashhur bo'lganli haqida ma'lumot berib o'tgan[31]. Baxmal dastlab temuriylar davrida, keyinchalik shayboniylar davrida ham boshqa mamlakatlarga jo'natilgan[32], unga bo'lgan ehtiyojning oshishi natijasida Yevropada uni ishlab chiqaradigan ko'rxonalar qurilgan.

XULOSA

O'rta Osiyo xonliklarida tashqi savdo aloqalari hududda ichki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik turg'un emasligi sababli tranzit savdo uchun qulay imkoniyatlarni yaratib beraolmagan. Buyuk geografik kashfiyotlar, Eronning Usmoniylar va O'rta Osiyo xonliklari bilan munosabatlari, XVI asrdan boshlab O'rta Osiyodagi siyosiy beqarorlik, uning dunyo tranzit savdo yo'lidagi maqomi salbiy ta'sir qilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бу ҳақида қаранг: Inalcik Halil. Osmanli İmparatorgu nun Ekonomik ve sosyal tarihi.Cilt 1.2. -Istanbul., 2004; Ўша муаллиф: Osmanlı İmparatorluğu:Toplum ve Ekonomi Osmanlı İmparatorluğu klasik çağ (1300-1600). – Istanbul., 2003.
2. Вамбери А.Очерки Средней Азии // Туркестанский сборник. -1868. Т.13. 161 с.
3. Папазян В. Торговые магистрали Табриз-Алеппо в системе торговых отношений Сефевидского государства с западом. Автореф. Дисс. Канд.ист.наук.-Тбилиси., 1986.
4. Рафтия – Усмонийлар давлатида ўлкадан чиқарилган товарлардан олинадиган солиқ тури.
5. Зиёев Ҳ. Сибирлик ўзбеклар. -Тошкент., 1959.
6. Якубовский А.Ю. Феодалное общества Средней Азиии его торговля Восточной Европой в X-VI вв. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч.1.-Т., Издательство АН СССР. 1932.
7. Бетгер Е. Извлечения из книги «Пути и страны» Абул-Касима ибн Хаукаля // Труды САГУ им. В.И.Ленина. Вып СХІ. Исторические науки. Книга 25.
8. Борнс А. Путешествие из Индии в Кабул, Татарию и Персию.Т.ІІ. -М., 1848. -389-397 с.
9. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро ва Хиванинг ташқи иқтисодий алоқаларига доир // Шарқшунослик. 1997. №8. Б.165.
10. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии .-СПб., 1865. 301-307 с.
11. Адылов К.А. Средневековый путь из Мерва на Серахс (историко-археологический очерк).: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ашхабад, 1960.

– 28 с.; Байпаков К.М. Средневековые города и поселения Семиречья (VII–XII вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Алма-Ата, 1966. – 20 с.; Акрамов Н.М. Русские исследователи и их вклад в изучение истории, археологии, этнографии народов Памира и Припамирья.: Автореф. дис...докт. ист. наук. – М.: МГУ, 1975. – 38 с.; Пирумшоев Х.Ф. Отражение истории городов и городской жизни Восточной Бухары конца XIX – начала XX веков в трудах русских дореволюционных исследователей.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АНРУз, 1979. – 21 с.; Ртвеладзе Э.В. Древняя Бактрия – Средневековый Тохаристан: динамика историко-культурного развития.: Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – М.: МГУ, 1988. – 37 с.; Сагдуллаев А.С. Оседлые области юга Средней Азии в эпоху раннего железа (генезис культуры и социально-экономическая динамика): Автореф. дис.. докт. ист. наук. – М.: МГУ, 1989. – 45 с.; Лубо-Лесниченко Е.И. Китай на Шелковом пути (шелк и внешние связи древнего и раннесредневекового Китая): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Л.: ЛО ИВ АН СССР, 1989. – 34 с.; Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и в Бухаре в XVI веке. Т.: Фан. 1976. 235.; Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывающие их с Россией (вторая пол. XIV- первая пол. XIX вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АНРУз, 1990. – 21 с.; Рауфов Т.В. Ремесло и торговля в Мавераннахре в X – начале XIII веков. Автореф. дис. ...канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АНРУз, 1990. – 20 с.

12. Валиева Д. Среднеазиатско-иранские отношения в первой половине XIX в // Взаимоотношение народов Средней Азии и сопредельных стран Востока. -Т.: Академ наук УзССР. 1963. С. 42-77; Маннонов Б. Ўрта Осиё Эрон элчилиги муносабатлари тарихидан. Эрон. Мақолалар тўплами. -Т.: Фан. 1977. 103-115 б; Ўша муаллиф: Эрон-Ўрта Осиё муносабатларига доир. Эрон. Мақолалар тўплами. -Т.: Фан. 1977. 119-125 б.

13. Валиева Д. Среднеазиатско-иранские отношения в первой половине XIX в // Взаимоотношение народов Средней Азии и сопредельных стран Востока. -Т.: Академ наук УзССР. 1963. С. 42-77.

14. Валиева Д. Среднеазиатско-иранские торговые отношения в первой половине XIX в. Взаимоотношение народов Средней Азии и сопредельных стран востока. -Т.: АН УзССР. 1963. -56 с.

15. Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. -Т., 1982; Ўша муаллиф: Узбекистан в XVIII первой половине XIX века. Ремесло, торговля и пошлины. -Т.: Фан. 1990;

16. Рожкова М. К. Экономические связи России со Средней Азией. -М.: Издательство АН СССР. 1963.

17. Соколов Ю. К вопросу о причинах провала английских устремлений в Восточную Европу, Среднюю Азию и Персию (XVI-XVII вв.) // Труды САГУ. Вып.68. 1955.
18. Жуковский С. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. -СПб., 1915.
19. Иванов П. Очерки по истории Средней Азии (XVI- середина XIX вв). - М.:ИВЛ. 1958.
20. Юлдашев М. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. -Т., 1964.
21. Соколов Ю. К вопросу о причинах провала английских устремлений в Восточную Европу, Среднюю Азию и Персию (XVI-XVII вв.) // Труды САГУ. Вып.68. 1955. С.17.
22. Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. Пер.с английского Ю. В. Готье. -М., 1937. С.177.
23. Бу ҳақида қаранг: Наршахий. Бухоро тарихи.
24. Немцева Н.Б. К истории тканей и одежды населения Средней Азии XV в. -Т.: Издательство литератур и искусства, 1972.
25. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. -Т.: Фан. 1976.
26. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. -Т.: Фан. 1976. С.116.
27. Zeki Velidi Togan. Bugunku Turkili (Turkistan) vey akin tarihi. Cilt 1.- Istanbul.,1981. S.118.
28. Пугаченкова Г.А. К истории костюма Средней Азии и Ирана XV – первой половины XVI в. По данным миниатюр // Труды САГУ. Вып XXXI . - Т.,1956. С. 96-116.
29. Сухарева О. Позднефеодальный город Бухара конца XIX – начале XX века. Ремесленная промышленность. -Т., 1962. С.112.
30. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: Oqituvchi. 2008. 32 б.
31. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: Oqituvchi. 2008.
32. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. -Т.: Фан. 1976. С.69.

Рахманкулова З. Б.

К.и.н. профессор кафедры «Источниковедения и архивоведения»
Национальный университет Узбекистана
zumradrahmankulova@gmail.com

ИЗ ИСТОРИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ХАНСТВ С ОСМАНСКИМ ГОСУДАРСТВОМ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются экономические отношения среднеазиатских ханств с Османской империей, и опирается на ряд источников и исследований в рамках темы. Также приводятся сведения о городах и товарах, которые имели большое значение в торговых отношениях между странами.

Ключевые слова: экономические отношения, караванные пути, текстильные изделия, шелковые ткани, ремесленные изделия.

Rahmankulova Z. B.

PhD., professor at the department of «Source studies and archival science»
National university of Uzbekistan
zumradrahmankulova@gmail.com

FROM THE HISTORY OF ECONOMIC RELATIONS OF THE CENTRAL ASIAN KHANATES WITH THE OTTOMAN STATE

ABSTRACT

The article examines the economic relations of the Central Asian khanates with the Ottoman Empire, and relies on a number of sources and studies within the framework of the topic. It also provides information about the cities and goods that were of great importance in trade relations between the countries.

Keywords: economic relations, caravan routes, textiles, silk fabrics, handicrafts.